

# O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (2024- yil yanvar oyi)

## 1. Sanoat mahsuloti

2024- yilning yanvar oyida respublika korxonalarini tomonidan **44,6** trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarishi fizik hajm indeksi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **116,6** foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoatning ulushi 75,7 foizni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 12,6 foizni, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati 11,1 foizni, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish 0,6 foizni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish o'sishining asosiy omili bo'lib ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarida ishlab chiqarish o'tgan yilning shu davriga nisbatan 20,6 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoatida 13,2 % ga, hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoatida fizik hajm indeksi 10,8 % ga oshganligi kuzatildi.

Shu bilan birga, o'tgan yilning shu davriga nisbatan avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar oyiga nisbatan 2,6 marta oshgan), mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish (133,7 %), shuningdek, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish (129,7 %), hajmi oshdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar (2023- yilning yanvar oyiga nisbatan 79,6 %), boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar oyiga nisbatan 70,6 %) hajmi pasayishi kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ishlab chiqarish xajmining o'zgarishiga avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish va hajmining o'sishi sabab bo'ldi.

## 2. Inflyatsiya darajasi

2024- yilning yanvarida respublika iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasini aks ettiruvchi iste'mol narxlari indeksi (INI) **100,6** % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha INI 100,7 % ni, nooziq-ovqat mahsulotlar bo'yicha 100,4 % ni, xizmatlar bo'yicha 100,9 % ni tashkil etdi.

2024- yilning yanvarida yig'ma ko'rsatkich o'sish sur'atiga oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'zgarishlarining ta'siri 0,30 foiz darajasini (keyingi o'rinlarda f.d.) tashkil etdi. Ularning hissasiga kuzatiladigan barcha tovarlar va xizmatlar ta'sirining 46,9 % i to'g'ri keldi. Nooziq-ovqat mahsulotlar narxlarining ushbu davrda yig'ma ko'rsatkich o'sish sur'atiga ta'siri 0,14 f.d. (21,9 %) va xizmatlarda 0,20 f.d. (31,2 %) kuzatildi.

O'zR MIIT-2018 bo'limlari orasida 2024- yilning yanvarida restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari INI 101,5 % ni, transport sohasidagi tovarlar va xizmatlarda 101,2 % ni, dam olish, sport va madaniyat sohasida 101,0 % ni, turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yoqilg'i turlarida 100,9 % ni, oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklarda 100,7 % ni, spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari hamda sog'liqni saqlash sohasida 100,5 % ni, maishiy va boshqa tovarlar va xizmatlarda 100,4 % ni, ta'lim sohasida 100,3 % ni, uy-ro'zg'or buyumlari, maishiy texnika va uy joylarga kundalik xizmat ko'rsatishda, sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar hamda kiyimlar va poyabzallarda 100,2 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narx o'zgarishlari hissasiga jami tovarlar va xizmatlarning yig'ma ko'rsatkich o'sish sur'atiga umumiy ta'sirining 45 %idan ortig'i to'g'ri keldi. "Transport" va "Turar joy xizmatlari, gaz, suv, elektr va boshqa yoqilg'i turlari" bo'limlaridagi narx o'zgarishlari hisobiga oylik yig'ma ko'rsatkich 0,21 f.d. yuqoriladi (umumiy ta'sir darajasidagi ulushi 32,8 %).

### **3. Qurilish ishlari**

2024- yilning yanvar oyida **6671,4** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **124,5** %ni tashkil etdi. Qurilish ishlarining umumiy hajmining 1089,4 mlrd. so'mi yoki 16,3 % yirik korxonalar va tashkilotlar, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 4162,5 mlrd. so'm yoki 62,4%, norasmiy sektor sub'ektlari tomonidan 1419,5 mlrd. so'm yoki 21,3 % bajarildi.

### **4. Chakana savdo tovar aylanmasi**

2024- yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi **20 778,5** mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **11,1** % ga o'sdi.

Yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2023- yilning yanvar oyiga nisbatan 5,3 % ga o'sdi, bu esa umumiy savdo hajmining 19,0 % ulushiga to'g'ri keladi. Kichik biznes sub'ektlarining chakana tovar aylanmasi 2023- yilning yanvar oyiga nisbatan 10,0 % ga o'sgan. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 69,3 % ni, shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 11,7 % ulush bilan 2 433,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### **5. Tashqi savdo aylanmasi**

2024- yilning yanvar oyi yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi **4 198,5** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan **870,1** ming AQSh dollariga yoki **17,2** % ga kamaydi. Eksport hajmi **1 116,6** mln. AQSh dollariga yetdi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **47,1** % ga kamaydi. Import **3 081,8** mln. AQSh dollariga yetdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan **4,1** % ga o'sdi.

Eksport tarkibida quyidagi guruhlarda o'sish kuzatildi, jumladan: nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari 65,5 % (24,6 mln. doll.)ga, kimyoviy



vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar 53,8 % (111,6 mln. doll.)ga hamda turli xil tayyor buyumlar 17,4 % (89,5 mln AQSh doll.)ga ko'paydi.

Import tarkibida quyidagi guruhlarda ham o'sish kuzatildi, jumladan: ichimliklar va tamaki – 53,8 % (11,6 mln. AQSh doll.)ga, sanoat tovarlari – 31,9 % (524,0 mln. AQSh doll.)ga hamda mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar 16,3 % (172,5 mln. AQSh doll.)ga to'g'ri keladi.

## **6. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari**

2024- yilning yanvar oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **39,1** trln. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **16,8** % ga o'sdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga moliyaviy xizmatlarining 27,1 % ga (ko'rsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining o'sishidagi ta'siri 6,8 punkt), savdo xizmatlari 12,1 % ga (o'sishdagi ta'siri 2,8 punkt), transport xizmatlari 9,9 % ga (o'sishdagi ta'siri 2,4 punkt), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 18,9 %ga (o'sishdagi ta'siri 1,2 punkt), ta'lim sohasidagi xizmatlarni 22,2 %ga (o'sishdagi ta'siri 0,8 punkt) o'sishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi moliyaviy xizmatlar (10,3 trln.so'm, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 127,1 %), transport xizmatlari (9,4 trln.so'm, 109,9 %) va savdo xizmatlari (8,5 trln.so'm, 112,1 %)ga to'g'ri keladi.

## **7. Korxonalar va tashkilotlar soni**

2024- yil 1- fevral holatiga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **483,1** mingtani (*fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari*) tashkil etdi, ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 415,0 mingta. Hududlar bo'yicha joylashgan eng ko'p soni esa Toshkent shahar (100 293 ta), Toshkent (45 333 ta), Samarqand (43 224 ta), Farg'ona (42 181 ta), Qashqadaryo (32 691 ta), Buxoro (30 697 ta) va Andijon (29 885 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning eng ko'p soni savdo sohasida – 157 272 ta, sanoat sohasida – 68 691 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasida – 37 172 ta, qurilish sohasida – 34 629 ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 28 448 tani tashkil etadi.

2024- yil yanvar oyida respublikada 6,2 mingta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, shundan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5,9 mingtani tashkil etdi.

2024- yil 1- fevral holatiga ko'ra respublikada xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 14 199 tani tashkil etdi. Ulardan 4 675 tasi qo'shma korxonalar va 9 524 tasi xorijiy korxonalar tashkil etgan.